

Mavzu: AYIRUV JARAYONLARI FIZIOLOGIYASI

DARSNING REJASI

1. Ayiruv organlari va ularning ahamiyati.
2. Buyrakning tuzilishi va funksiyasi
3. Buyraklarning tuzilishi. nefronda qonning ta'minlanishi.
4. Yukstaglomerulyar kompleks, koptokchalarda filtratsiya.
5. Buyrak faoliyatining boshqarilishi.
6. Siydk ayirish organlarining ko‘p uchraydigan kasalliklari.



Tayanch so‘zlar: nefron, genls krvo‘zlogi, shumlyanskiy -Boumen, burmalar, yiguvchi: nay, malpigiy koptokchasi, gokstamedullyar nefron, renin, filtratsiya, reabsorbsiya, diurez, osmoretsentor, atsidoz, antidiuretik garmon, aldosteron, dezoksikortikosteroy.



1.Ayiruv organlari va ularning ahamiyati.

Odamda buyraklar, teri bezlari, o‘pkalar hamda ichaklar ayiruv organidir. O‘pka karbonat kislota, ba’zi uchuvchan modadlar, masalan, narkoz vaqtida efir va xloroform bug’lari, alkogol bug’lari organizmdan o‘pka orqali chiqib ketadi. Ichak ba’zi og’ir metallarning tuzlarini, shuningdek o‘t pegmentlarining o‘zgarish maxsulotlarini organizmdan chiqarib yuboradi.

Ayiruv organlari modda almashinuvining oxirgi mahsulotlarini organizmdan chiqarib yuborish bilan bir qatorda, organizm ichki muhitining tarkibi va xossalalarini doim bir darajada saqlash uchun ahamiyatlidir. Masalan, ular osmoregulyatsiyada, ya’ni organizm ichki muhitining osmotik bosimini doim bir darajada va undagi ionlar tarkibini doimiyligini saqlashda qatnashadi. O‘pka alveolalari va teri yuzasidan suv buglanishi gavda temperaturasini pasaytiradi va termoregulyatsiyada qatnashadi.





Ayruv organlori orasida yog‘ va sut bezlari alohida o‘ringa egadir. Ular ajratadigan moldalar - teri yog‘i va sut - modda almashinuvining oxirgi mahsulotlari bo‘lmay, ma’lum fiziologik ahamiyatga egadir: masalan sut yangi tug’ilgan bolalarga ovqat bo‘ladi, teri yog‘i esa terini moylab turadi.




2.Buyrakning tuzilishi va funksiyasi

Ovqat tarkibida iste'mol qilingan oqsil, yog‘, uglevodlar, suv,tuzlar me'da-ichaklardan qonga so'rilib, jigarga boradi, unda keraksiz (zaharli) moddalardan tozalangach, yana qon orqali tananing barcha to'qima va hujayralariga tarqaladi. Hujayralarda moddalar almashinuvi natijasida bu oziq moddalar kislorod bilan oksidlanib, parchalanadi. Bu jarayonlar natijasida organizm uchun zararli moddalar (siydk kislota, qoldiq azot, mochevina, kreatinin, karbonat angidrid kabilar) hosil bo'ladi. Bu zararli qoldiq moddalar hujayralardan qonga o'tib, ayirish organlari orqali tashqariga chiqarib yuboriladi.



Siydik ayirish organlarining umumiyo ko'rinishi:

- 1 - buyrak; 2 - siydik yo'li;
- 3 - qovuq (siydik pufagi);
- 4 - buyrak arteriyasi;
- 5 –buyrak venasi



Buyrakning ichki ko'rinishi:

- 1 — buyrakning po'st qismi;
- 2 — buyrakning mag'iz qismi;
- 3 — buyrak jomi;
- 4— buyrak arteriyasi;
- 5 — buyrak venasi.

3.Buyraklarning tuzilishi. nefronda qonning ta'minlanishi.

Buyraklar juft a`zo bo'lib (o'ng va chap buyrak), qorin bo'shlig'ining bel qismida, ya'ni birinchi va ikkinchi bel umurtqalarining yon tomonida joylashgan. Ular loviya shakliga o'xshash bo'ladi. Buyrak murakkab tuzilgan. Uning ichki tomoni botiqroq bo'lib, u joy buyrak darvozasi deb ataladi. Buyrak darvozasi orqali unga arteriya qon tomiri kiradi, vena qon tomiri chiqadi.

Shuningdek, buyrak darvozasi orqali siydik yo'li ham chiqadi. Har bir buyrakning massasi o'rtacha 150 g keladi. Buyrakning mikroskopik tuzilishi. Buyrakni bo'yylamasiga kesib qaralganda, uning to'qimasi ikki qavatdan: tashqi qoramtil po'st qavat va ichki oqamtir mag'iz qavatdan iborat ekanligi ko'rindi. Buyrak to`qimasi murakkab mikroskopik tuzilishga ega bo'lgan nefronlardan tashkil toigan.

Buyrakda siydik hosil bo‘lishi. Buyrakda siydik hosil bo‘lishi ikki fazalar (davr)ga bo‘linadi. Birinchi davr — *filtratsiya* davri, u birlamchi siydik hosil bo‘lishidan iborat. Bunda nefronlardagi arteriya kapillarlari orqali qonning suyuq qismi filtrlanib, nefron bo‘shlig‘iga (kapsulaga) o‘tadi. Bu jarayonning o‘tishi kapillarlardagi bosimning yuqori, kapsuladagi bosimning past bo‘lishiga bog‘liq.



Birlamchi siydikning tarkibi qon plazmasining tarkibiga yaqin. Unda faqat oqsil bo‘lmaydi. Chunki u kapillar qon tomirlarining devoridan filtrlanib o‘tmaydi. Kapsuladagi birlamchi siydik kalavasimon kanalchalarga o‘tadi. Bu kanalchalarning devori orqali birlamchi siydik tarkibidagi qand va aminokislotalar, suv va mineral tuzlarning ko‘p qismi, ya’ni 98,5—99,0% i vena tomirlariga qayta so‘riladi. Bunga *reabsorbsiya jarayoni* deyiladi.

Bu siydik hosil bo‘lishining ikkinchi davri hisoblanadi. Kanalchalarda qolgan siydik ikkilamchi siydik deyilib, uning tarkibida qoldiq azot, mochevina, kreatinin kabi moddalar, ma’lum miqdorda tuz va suv bo‘ladi. Katta odamning buyrak nefronlarida uzluksiz siydik filtrlanishi natijasida bir sutkada o‘rtacha 100 litr birlamchi siydik hosil bo‘ladi. Uning 98,5—99 litri kalavasimon kanalchalar devori orqali qonga qayta so‘riladi, qolgan 1—1,5 litri esa ikkilamchi siydik sifatida tashqariga chiqariladi.



Siydik yo'li buyrak jomidan boshlanib, qorinning orqa devoir bo'ylab pastga tushadi va siydik pufagiga tutashadi. Siydik yo'lining uzunligi katta yoshli odamda o'rtacha 30 sm bo'ladi. Buyrakda filtrlanib hosil bo'lgan siydik, siydik yo'li orqali siydik pufagiga uzlucksiz quyilib turadi.

Siydik pufagi qorinning pastki qismida chanoq sohasida joylashgan bo'lib, uning hajmi katta odamda 500—700 ml bo'ladi.




Buyraklar organizmda suv balansini, kislota-ishqor muvozanatini, natriy, kaliy, xlor, fosfor va boshqa mineral moddalar balansini boshqarishda qatnashadi, ba'zi kimiyaviy birikmalarni sintezlaydi, arterial bosim miqdoriga ta'sir etuvchi fiziologik, modda *renin* ishlab chiqaradi, Buyraklarning asosiy funksiyasi - siydik hosil qilishdir. Buyrak murakkab tuzilishga ega bo'lib, taxminan 1 million nefronidan tuzilgan, bular struktura va funksional birliklardir. Nefronning funksional birlik ekaniga sabab shuki, u siydik hosil bo'lishida ro'y beradigan barcha protsesslar yigindisini amalga oshira oladi, Buyrak kapsulasining devorlari orasidagi bo'shliqdan kanalcha boshlanadi.

Nefron tarkibiga buyrak kapillyar koptokchasini o'ragan ikki qavat devorli, qadahsimon shakldagi koptokcha kapsulasi yoki Shumlyanskiy-Boumen kapsulasi mavjid.

Buyrakning magaz qismida kalavasimon kanalcha to'g'rilanib, yuqoriga buriladi. So'ngra u yana buyrakning po'st qavatiga o'tib, ikkinchi tartib egri-bugri kalavasimon kanalchani hosil qiladi. U chiqaruvchi kanalga tutashadi. Yuqorida bitta nefronning tuzilishi bayon etildi, Har bir buyrakda shunday nefronlardan 1 mln dan ko'proq bo'ladi.

Ularning egri-bugri kalavasimon kanalchalarining uzunligi 120 km, devorining sathi 40 m² atrofida bo'ladi. Chiqaruvchi kanal buyraknnng po'st va mag'iz qavatlari orqali o'tib, buyrak jomiga quyiladi. Undan esa yuqorigi siydik yo'li boshlanadi, Shumlyanskiy kapsulasiga arteriya tomiri kirib, mayda tomirchalarga, ya'ni to'rsimon shakldagi kapillyarlarga bo'linib, Malpigi tugunchasini hosil qiladi.



A blurry, colorful image showing two people in a room. One person is wearing a red and yellow patterned top, and the other is wearing a white shirt. The background is dark and indistinct.

MakeAGIF.com

4.Yukstaglomerulyar kompleks, koptokchalarda filtratsiya.

Yukstaglomerulyar kompleks. Qon olib keluvchi arteriolaning koptokchaga kiradigan joyidagi qalin tortgan devori. bu joy mioepiteliy hujayralaridan tuzilgan bo‘lib, yukstaglomerulyar (koptokcha oldi) kompleksi deb ataladi. Bu kompleks hujayralari ichki sekresiya funksiyasini o’taydi, buyrakdan qon utishi kamayganda renin ishlab chiqaradi, bu modda arterial bosim miqdorini boshqaradi.

1844 yildayoq K.Lyudvig siydik hosil bo‘lish protsessi koptokchalarining kapillyarlari devori orqali ro’y beradigan filtratsiyadan va kanalchalarda ro’y beradigan reabsorbsiya qayta so‘rilishdan iborat deb ataladi. A. Keshich siydik hosil bo‘lishining fil’tratsiya reabsorbsiya nazariyasini yaratgan. Koptokcha kapillyarlari orqali o’tadigan qon plazmasidan Shumlyanskiy-Bouien kapsulasiga suvda erigan barcha moddalar (yuqori molekulali birikmalardan tashqari) filtrlanib o’tadi.

5.Buyrak funksiyasining boshqarilishi. Buyrakda siylik hosil bo‘lishi nerv va gumoral yo‘l bilan boshqariladi. Simpatik nerv tolalari buyrak qon tomirlarini toraytirib, siylik ajralishini kamaytiradi.

Parasimpatik nerv tolalari esa buyrak qon tomirlarini kengaytirib, siylik ajralishini ko‘paytiradi. Bu nervlarning markazi orqa va bosh miyada joylashgan. Bosh miyaning pastki sohasida joylashgan giðofiz bezining orqa bo‘lagida sintezlanadigan *antidiuretik gormon* (*ADG*) buyrak egri-bugri kanalchalarining devoriga ta’sir etib, reabsorbsiya jarayonini kuchaytiradi va siylik ajralishini kamaytiradi. Qalqonsimon bezda sintezlanadigan *tiroksin* gormoni, aksincha, reabsorbsiya jarayonini pasaytirib, siylik ajralishini ko‘paytiradi.


Buyrak usti bezlari mag'iz qavtining gormoni adrenalin ham diorezga ta'sir kursatadi, Buyrak tomirlariga ozgina adrenalin yuborilganda buyrak hajmi kattalashadi va arterial tomirlar torayadi hamda koptokchalaridagi filtratsion bosim oshib ketadi. Katta dozadagi adrenalin buyrakka keluvchi tomirlarni ham toraytiradi, natijada koptokchalarga qon kelishi kamayib, diorez tuxtaydi.

Buyrak usti bezlarining cassallanishi yoki olib tashlanishi natijasida bu mexanizm yuqolib, siydik bilan bir talay natriy chiqib ketadi va organizm og'ir axvolga tushadi.




Buyrak funksiyasining boshqarilishi.

Buyrakda siydik hosil bo‘lishi nerv va gumoral yo‘l bilan boshqariladi. Simpatik nerv tolalari buyrak qon tomirlarini toraytirib, siydik ajralishini kamaytiradi. Parasimpatik nerv tolalari esa buyrak qon tomirlarini kengaytirib, siydik ajralishini ko‘paytiradi. Bu nervlarning markazi orqa va bosh miyada joylashgan.





Bosh miyaning pastki sohasida joylashgan gipofiz bezining orqa bo‘lagida sintezlanadigan *antidiuretik gormon* (*ADG*) buyrak egribugri kanalchalarining devoriga ta’sir etib, reabsorbsiya jarayonini kuchaytiradi va siydik ajralishini kamaytiradi. Qalqon-simon bezda sintezlanadigan *tiroksin* gormoni, aksincha, reabsorbsiya jarayonini pasaytirib, siydik ajralishini ko‘paytiradi.






6. Siydik ayirish organlarining ko‘p uchraydigan kasalliklari.

Buyraklarda tosh paydo bo‘lishi kasalligining sababi ovqat tarkibida tuzni ko‘p iste’mol qilish, kam harakatlanish hisoblanadi. Buyraklarning yallig‘lanish kasalliklari (nefrit, piyelonefrit)ning sababi bodomsimon bezlarning yallig‘lanishi (angina), tish kasalliklarini davolatmaslikdir. tomoqdagi o‘z vaqtida

LOVIYASIMON BUYRAK

son tanasidagi juft loviyasimon organ bo'lib, o'rtacha 120-200 gr. U qorin b
a, umurtqa pog'onasining ikki tomonida joylashgan. Buyrakning ikki tomon
mirlar, nervlar hamda siylik kanali o'tgan.



filtrlaydi hamda
ozalaydi

zananatini saqlaychi
ishlab chiqaradi

Vit D'ni faol D3
shiga o'tqazadi

Qonda tuzi
muvozanatini

Eritropoetin
ishlab chiqaradi

Prostaglin
sintezlasi

Asosan qonni filtrlab, siylik ishlab chiqarish vazifasini bajaradi

i mahsulotlar

zil lavlagi

Tarvuz

Guruch

'axta yog'i

Shivist

Rennet

Na'matak

Bu qiziq!

Buyraklar yaxshi ishlamasasi, ko'rish
va eshitishda qobiliyati pasayadi.

Buyrakdan toshlarni oluvchi jarrohlar
Gippokrat davrida ham bo'lgan

Agar odamning bir buyragi ishlamasasi,
qolgani tezda kattalashib ikkita
buyrak hajmicha ko'rinishga o'tadi.
Va ikkala buyrak vazifasini yakka
o'zi bajaradi.

Zararli orqorda

Semizlik

Magniy yetishi

Kofein

Uyqu buzi

Chekist

Kam suyuqlik

Vitamin B6



Mavzu yuzasidan nazorat savollar.


1. Buyrakning magaz qismi qanday tizimga ega?
2. Antidiuretik gormon (ADG) nima vazifani bajaradi?
3. Buyrak funksiyasi qanday boshqariladi?
4. Buyrak tuzilishi va funksiyasi qanday?
5. Nefron qanday bo‘limlardan iborat.
6. Buyrak qon bilan qanday ta’minlangan?
7. Siydik ayrishning kanday bosqichlari bor ?
8. Reabsorbsiya nima ?



E'tiboringiz uchun rahmat












- Ular yashil sabzavotlar, kartoshka, ko'kat, qora undan yopilgan non, zig`ir va paxta moyida, go'sht, tuxum, sut, sariyog` tarkibida mavjuddir.










B
a

P P







Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

- 1.Oziqlanish deb nimaga aytildi?
2. Oziqlarning plastiklik ahamiyati nima?
3. Ozuqalarning energiyaviy ahamiyati nima?
4. Entropiya deb nimaga aytildi?
5. Organizmdagi barcha modda va energiya o'zgarishlari nima deb ataladi?
6. Oziq moddalardagi energiya miqdori haqida ta'rif bering?
7. Anaerob almashinuvi deb nimaga aytildi?
8. Asosiy almashinuv deb nimaga aytildi?
- 9.Energiyaning kunlik sarfiga ta'rif bering?
- 10.Modda almashinuvining *uchinchis bosqichiga* ta'rif bering? Mavzu:



Amaliy mashg'ulot № 6

Mavzu: Ozuqa ratsionini tuzish.

Nazariy tushuncha. Organizm o'z hayot faoliyati uchun zarur energiyani ovqat tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodlardan oladi. Bundan tashqari, ovqat energiya zapasini uzluksiz to'ldirib turishi bilan birga organizm to'qimalarining tiklanishi va qayta qurilishi uchun zarur har xil moddalar bilan ta'minlab turadi.

Ovqat ratsionini tuzish uchun ovqat mahsulotlari tarkibini, sifati va miqdorini aniq bilish zarur bo'ladi. Ovqatlanishning fiziologik normalari odamning yoshi, jinsi, bo'yi, vazni, u yashaydigan iqlim sharoiti, geografik joylashishi, shuningdek, bajaradigan ishining turiga qarab turli odamda turlicha bo'ladi.

Ishdan maqsad. Ovqat ratsionini tuzish printsiplari tanishib chiqish.

Zarur jihozlar: ovqat mahsulotlarining ximiyaviy tarkibi va kaloriyasini ifodalaydigan jadvallar.

Ishni bajarish tartibi. Ovqat ratsionini tuzish uchun eng avval sutkalik energiya sarfi aniqlanadi. Buning uchun xronometriya bo'yicha kun tartibi tuziladi. Har xil ishlarda sarflanadigan energiya sarfi jadvaldan topiladi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanib, quyidagi sxema bo'yicha kun tartibi tuzib chiqiladi:

| Ish turi | Muddati (soat) | 1 soatda 1kg vaznga sarflanadigan energiya miqdori (kkal) | Butun ish davomida 1 kg vaznga sarflanadigan energiya miqdori (kkal) |
|----------|-------------------|--|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |



- Bir kunda 4 marta ovqatlanish ratsionali hisoblanadi, shuning uchun tuzayotganda birinchi va ikkinchi nonushta, tushlik va kechki ovqatni hisobga olish kerak. Agar sutkalik kaloriyani 100% deb qabul qilsak, shundan 25% i ertalabki nonushtaga, 15% i ikkinchi nonushtaga, 45% tushlikka va 15% kechki ovqatga to'g'ri kelishi kerak. Ratsion tuzishda quyidagi tablitsadan foydalaniladi:

| Ovqatlanish rejimi | Mahsulot nomi | Og'irligi | Olingan mahsulot tarkibida gramm hisobida | | | Kaloriyasi |
|--------------------|---------------|-----------|---|---------|------------|------------|
| | | | oqsillar | yog'lar | uglevodlar | |
| 1-nonushta | | | | | | |
| 2-nonushta | | | | | | |
| Tushlik | | | | | | |
| Kechki ovqat | | | | | | |
| Umumiy: | | | | | | |

**Bolalar va o'smirlarning bir kecha-kunduzgi ovqati tarkibida
bo'ladigan oqsil, yog' va uglevodlar me'yori**

| Bolalar va o'smirlarning yoshi | Oziq moddalar miqdori (g) | | | Shu moddalardan ajraladigan energiya(kkal) |
|-----------------------------------|---------------------------|---------|------------|--|
| | oqsil | yog' | uglevodlar | |
| 5–7 | 65–75 | 75–80 | 250–300 | 1800–2300 |
| 8–11 | 75–90 | 80–90 | 350–400 | 2400–2800 |
| 12–14 | 90–100 | 90–100 | 400–450 | 2800–3200 |
| 16–18 | 100–120 | 100–110 | 450–500 | 3200–3500 |
| Katta odamlar | 100–120 | 80–110 | 450–500 | 3200–3500 |

Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari dagi oqsil, yog', uglevodlar va energiya miqdori

| № | Oziq mahsulotlari | 100 g oziq mahsulotidagi oqsil, yog', uglevodlar miqdori (g) | | | 100 g oziq mahsulotidagi energiya miqdori (kkal) |
|----|-------------------|--|------|------------|--|
| | | oqsil | yog' | uglevodlar | |
| 1 | Mol go'shti | 20,2 | 7,0 | — | 187 |
| 2 | Tovuq go'shti | 17,2 | 12,3 | — | 185 |
| 3 | Baliq | 16,0 | 0,7 | — | 72 |
| 4 | Tuxum (1 dona) | 12,5 | 12,1 | 0,55 | 175 |
| 5 | Sut | 2,8 | 3,5 | 4,5 | 65 |
| 6 | Qatiq | 2,8 | 3,5 | 2,9 | 56 |
| 7 | Tvorog | 11,1 | 18,9 | 2,3 | 230 |
| 8 | Pishloq | 22,6 | 25,7 | — | 332 |
| 9 | Oq non | 6,7 | 0,7 | 50,3 | 240 |
| 10 | Qora non | 5,3 | 1,2 | 46,1 | 222 |
| 11 | Guruch | 6,4 | 0,9 | 72,5 | 332 |
| 12 | Makaron | 9,3 | 0,8 | 70,9 | 336 |
| 13 | No'xat | 19,8 | 2,2 | 50,8 | 310 |
| 14 | Loviya | 19,6 | 2,0 | 51,4 | 310 |
| 15 | Shakar | — | — | 95,5 | 390 |
| 16 | Kartoshka | 2,4 | 0,22 | 19,5 | 62,5 |
| 17 | Sabzi | 1,2 | 0,3 | 9,0 | 30,5 |
| 18 | Pomidor | 0,5 | — | 4,0 | 18 |
| 19 | Bordning | 0,7 | — | 2,9 | 15 |
| 20 | Olma | 0,3 | — | 10,8 | 45 |